

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIGI

Yuldoshev Axmad

Toshkent davlat yuridik universiteti

XHQH – Fakulteti 1- kurs talabasi

ahmadyuldashev001@icloud.com

+998-95 222 24 00

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20485137>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy organ hisoblanadi. Ular davlat boshlig'i va qonun chiqaruvchi organning hujjatlarining samarali ijrosini amalga oshirishga javobgardir. Jamiyatimizning eng keng vakolatlari Vazirlar mahkamasida to'plangan va ular xalqning xohish-irodasi, manfaatlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Shu sababli Vazirlar Mahkamasidan ancha katta mas'uliyat talab qilinadi va ularning faoliyatlari qonuniy va xatoliklarsiz amalga oshirilishi kerak. Ushbu maqolada Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik masalalari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga turli sohalarda Vazirlar Mahkamasining javobgarlik masalalari tahlil qilinadi va ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha takliflar keltiriladi. Vazirlar Mahkamasining aynan qanday masalalar yuzasidan javobgar bo'lishi mumkin hamda ular tomonidan qanday huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin? Vazirlar Mahkamasining javobgarlik masalalariga taalluqli bizning qonunchiligimizda qanday normalar mavjud?

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik, ishonchsizlik votumi, moliyaviy javobgarlik, ijtimoiy javobgarlik.

Аннотация: Кабинет Министров Республики Узбекистан является высшим органом исполнительной власти. Они несут ответственность за обеспечение эффективного исполнения актов главы государства и законодательного органа. В Кабинете Министров сосредоточены самые широкие полномочия нашего общества, и они служат удовлетворению воли и интересов народа. Поэтому Кабинет Министров должен взять на себя большую ответственность, а его деятельность должна осуществляться законно и без ошибок. В статье рассматриваются вопросы конституционно-правовой ответственности Кабинета Министров. В то же время анализируются полномочия Кабинета Министров в различных сферах и вносятся ряд предложений по дальнейшему совершенствованию деятельности органов исполнительной власти. За какие конкретно вопросы Кабинет министров может нести ответственность и какие нарушения он может допустить? Какие нормы есть в нашем законодательстве относительно ответственности Кабинета Министров?

Ключевые слова: конституционно-правовая ответственность, вотум недоверия, финансовая ответственность, социальная ответственность.

Abstract: The Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan is the supreme body exercising executive power. They are responsible for the effective implementation of the acts of the head of state and the legislative body. The broadest powers of our society are concentrated in the Cabinet of Ministers, and they serve to satisfy the will and interests of the people. Therefore, much greater responsibility is required of the Cabinet of Ministers, and their activities must be carried out legally and without errors. This article discusses the issues of

constitutional and legal responsibility of the Cabinet of Ministers. At the same time, the issues of responsibility of the Cabinet of Ministers in various areas are analyzed and a number of proposals are made to further improve the activities of the executive branch. For what issues can the Cabinet of Ministers be responsible and what offenses can they commit? What norms are there in our legislation regarding the issues of responsibility of the Cabinet of Ministers?

Keywords: constitutional and legal responsibility, vote of no confidence, financial responsibility, social responsibility.

Kirish

Ijro etuvchi hokimiyat – bu davlat va jamiyat hayoti barcha sohalarining samarali faoliyatiga markaziy va mahalliy darajada rahbarlikni amalga oshiradigan, qonunlar va prezident qarorlarining ijrosini ta’minlovchi, ushbu ijroni ta’minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiluvchi, majburlov vositalariga ega bo’lgan hamda faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ifoda etuvchi davlat hokimiyatining mustaqil tarmog’idir. Ijro etuvchi organlar tizimida hukumat, ya’ni Vazirlar Mahkamasining o’rni katta. Odatda hukumat ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi bo’lib, u Konstitutsiya va qonunlar asosida o’z vakolatlari doirasida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Shu bilan birga hukumat, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni ta’minlash kabi bir qancha masalalar yuzasidan mas’uldir.

Vazirlar mahkamasining faoliyatini tartibga solish maqsadida “O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to’g’risida”gi qonuni mavjud. Ushbu qonunda Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, vazifa va vakolatlari hamda javobgarligiga doir normalar keltirilgan. Uning 3-moddasida Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi hamda kimlarning oldida javobgarligi ko’rsatilgan: Vazirlar Mahkamasi — O’zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo’lib, iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohalarining samarali faoliyat ko’rsatishiga rahbarlik qilishni, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi. Vazirlar Mahkamasi O’zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning yagona tizimiga rahbarlik qiladigan kollegial organdir.¹ Ushbu qonun hamda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasiga ko’ra, Vazirlar Mahkamasi o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.² Bu hukumatimizning asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi belgilangan asosiy normadir. Bizning Respublikamizda Vazirlar Mahkamasini shakllantirish bevosita davlat prezidenti va qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun hukumat javobgarligi eng avvalo davlat boshlig’i va parlament oldidagi javobgarlikdan boshlanadi. Albatta hukumatning javobgarlik masalalari uning Konstitutsiya va qonunlarda belgilanib qo’yilgan vakolatlari doirasiga muvofiq bo’ladi. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari uning javobgarlik masalasini ham belgilaydi. Vazirlar Mahkamasi: samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budget siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog’liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo’ladi. Masalan, ushbu

¹ O’zbekiston Respublikasining qonuni, 25.10.2024-yildagi O’RQ-982-son

² O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

vakolat bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasiga javobgarlik mas'uliyatini ham yuklamogda. Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil etish va rahbarlik qilish Bosh vazirga tegishli. U Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun javobgar bo'ladi. Bu yerda hukumat rahbarining eng asosiy javobgarligi haqida so'z boradi.

Material va metodlar

Hukumatning javobgarlik masalasi davlatning boshqaruv shakliga bevosita bog'liqdir. Prezidentlik respublikalardagi hukumat bilan parlamentar respublikalardagi hukumatning javobgarliklari bir-biridan tubdab farq qiladi. Masalan, prezidentlik respublika boshqaruv shaklidagi davlatlarda ijro hokimiyati prezident xohish-irodasiga muvofiq shakllantirilib, hukumat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat ham aynan davlat rahbarining siyosati sifatida qaraladi. Shu sababli bunday davlatlarda hukumatni javobgarlikka tortish yoki uni iste'foga chiqarish prezidentning qo'lida bo'ladi. Turkiya davlatini prezidentlik respublika misolida ko'rish mumkin, 2017-yildan boshlab bu davlat prezidentlik respublikasi boshqaruv tizimiga o'tgan hisoblanadi. Parlamentar davlat boshqaruvidagi davlatlarda esa hukumatni yangi shakllangan parlament asosiy ko'pchilik ovozi bilan shakllantiradi. Bunda hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik masalasi ham uni shakllantirgan organ, ya'ni parlament qo'lida bo'ladi. Germaniya va Italiya kabi davlatlarning boshqaruv shakli parlamentar respublika hisoblanadi.

Ko'plab xorijiy davlatlarda hukumatning u yoki bu a'zosiga nisbatan ishonchsizlik bildirilishiga oid huquqiy asoslar mustahkamlangan. Masalan, Finlandiya konstitutsiyasining 64-moddasida aynan parlament tomonidan hukumatning alohida a'zolariga nisbatan ishonchsizlik bildirilishi mumkinligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Latviya, Litva, Estoniya hamda avstriya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida ham bu masalaga oid normalar o'z aksini topgan.

Hukumat a'zosi hisoblangan vazirga shunday qonuniy asoslar bilan ishonchsizlik bildirilayotganligi natijasida vazirning iste'foga chiqishi kabi oqibat vujudga keladi. Hukumatning muayyan a'zosiga nisbatan ishonchsizlik bildirilar ekan, vakillik organi hamda ijro hokimiyati o'rtasida konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat vujudga keladi. Hamda bu munosabat orqali vazir konstitutsiyaviy javobgarlikka tortiladi.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyati davlat boshlig'i – prezident hamda qonun chiqaruvchi hokimiyat oldida javobgar hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 119-moddasida Vazirlar mahkamasining rahbari hisoblangan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilish tartibi keltirilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi, agar O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bersa, qabul qilingan hisoblanadi.

Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibini yoki a'zosini iste'foga chiqarishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zosining o'z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan hisobotini eshitishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi a'zosining hisobotini eshitish yakunlariga ko'ra Qonunchilik palatasi uni iste'foga chiqarish to'g'risidagi taklifni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ko'rib chiqish uchun kiritishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolari parlament so'rovlariga va Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining so'rovlariga qonunda belgilangan tartibda javob berishi shart.

Tadqiqot natijalari tahlili

Vazirlar mahkamasining aynan qanday sohalar va yo'nalishlar doirasida javobgar bo'lish asoslarini tahlil qilamiz.

1. Siyosiy sohadagi javobgarlik

Vazirlar Mahkamasining siyosiy javobgarligi uning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobdorligi bilan belgilanadi. Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasi a'zolari Prezident tomonidan tayinlanadi va ular o'z faoliyatini samarasiz bajargan yoki ishonchni yo'qotgan taqdirda lavozimidan ozod etilishi mumkin.

Siyosiy javobgarlikning asosiy mexanizmlariga quyidagilar kiradi:

Parlamentga hisobot berish - Vazirlar Mahkamasi faoliyati to'g'risida Oliy Majlisga beriladigan hisobotlar.

Jamoatchilik nazorati - fuqarolarning davlat dasturlari va tashabbuslarini jamoatchilik kengashlari va platformalari orqali muhokama qilishda ishtirok etishi.

2. Moliyaviy sohadagi javobgarlik

Vazirlar Mahkamasining moliyaviy javobgarligi davlat byudjetini shakllantirish va ijro etish masalalarini qamrab oladi. Vazirlar Mahkamasi byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi uchun mas'ul bo'lib, bu shaffoflik va hisobdorlikni talab qiladi.

Mavjud nazorat mexanizmlariga qaramay, quyidagi muammolar yuzaga keladi:

Korrupsiya: byudjet mablag'laridan maqsadsiz hamda ma'lum shaxslarninggina manfaatlarini ko'zlab foydalanish holatlari.

Samarasiz rejalashtirilgan mablag'lar natijasida byudjet xarajatlarini asoslashning yetarli emasligi. Davlat budjetining ko'plab miqdori asossiz muhim bo'lmagan yoki foydasiz holatlar uchun sarflanib yuborilishi.

Vazirlar mahkamasi shu sohadagi siyosatni amalga oshirishga ham mas'ulligi tufayli moliyaviy masalalardagi muvaffaqiyatsizliklar, yo'qotishlar hukumatni o'z vazifasini suiiste'mol qilganligining dalili hisoblanadi. Natijada, hukumatning moliyavoiiy muammolar yuzasidan javobgarligi yuzaga keladi.

3. Ma'muriy sohadagi javobgarlik.

Vazirlar Mahkamasi a'zolari ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini buzganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Masalan:

Boshqaruv standartlarini buzish, ya'ni qonunga zid qarorlar qabul qilish holatlari kuzatilganligi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.³

Vazifalarni bajarmaslik ham shunday toifaga kirishi mumkin, ya'ni o'z vakolatlarini lozim darajada bajarmaslik yoki bajarmaslik.

4. Ijtimoiy sohalardan kelib chiqadigan javobgarlik

Vazirlar Mahkamasi fuqarolarning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy huquqlarini ta'minlash uchun mas'uldir. Ijtimoiy mas'uliyat Vazirlar Mahkamasidan aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali dasturlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Ijtimoiy javobgarlik yuzaga keltiruvchi muammolarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

-sog'liqni saqlash va ta'lim kabi eng muhim bo'lgan sohalardagi xizmatlardan foydalanishda uchraydigan tengsizliklar. Misol uchun, shahar va qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatida farqlar mavjud. Qishloq ta'lim muassasalarining texnik holati, sharoitlari, yetarlicha jihozlanmaganligi, ta'lim berish sifati, malakali kadrlar yetishmasligi ijtimoiy sohadagi kamchiliklardir. Tibbiy muassasalarda ham shunday ahvol. Vazirlar Mahkamasining zimmasida shu kabi muammolarni ham tartibga solish bilan bog'liq mas'uliyati bor.

-moliya yetishmasligi - ijtimoiy dasturlar uchun budjet mablag'larining yetishmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shu sababli, hukumatimiz bu ijtimoiy muammolarni birdaniga hal qila olmaydi.

5. Jinoiy javobgarlik

Korrupsiya yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi jiddiy qonunbuzarlik holatlarida Vazirlar Mahkamasi a'zolari jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu axloqiy me'yorlar va qonunlarga rioya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Ko'plab ijro hokimiyatining mansabdor shaxslari o'zining va yaqinlarining manfaatlari yo'lida davlatning mablag'larini behuda sarflashmoqda. Natijada, jamiyatimizning rivojlanish va moliyalashtirilishga nisbatan ko'proq ehtiyoj sezadigan bo'g'inlari orqada qolib ketmoqda.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida boshqaruv tartibidagi jinoyatlar uchun alohida bob tashkil qilingan. Korrupsiyaga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanishi jinoyat kodeksida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, hukumat a'zolari o'z mansab lavozimlarini boshqacha tarzda suiiste'mol qilmasliklari darkor.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, vazirlar mahkamasining zimmasida juda katta mas'uliyat mavjud va bu mas'uliyat unga muayyan javobgarliklarni keltirib chiqaradi. Hamda hukumat faoliyatida ortiqcha javobgarliklar kelib chiqishini oldini olish uchun ba'zi takliflarni keltirib o'taman.

³³ O'zbekiston Respublikasining qonuni, normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son

1. Vazirlar Mahkamasining har bir a'zosining faoliyatini baholash uchun aniq va o'lchovli mezonlar ishlab chiqish.
2. Yillik hisobotlarga e'tibor bergan holatda va natijalar asosida javobgarlikni belgilash kerak.
3. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali Vazirlar Mahkamasining faoliyati haqida muntazam va batafsil ma'lumot olish uchun imkoniyatlarni kengaytirish.
4. Fuqarolar va jamoatchilik vakillari ishtirokida ochiq eshiklar kunlarini o'tkazish.
5. Korruptsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish.
6. Har bir vazirlik va idorada korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish.
7. Vazirlar Mahkamasining a'zolari va xodimlari uchun muntazam ravishda etika, qonunchilik va boshqaruv sohalarida treninglar tashkil etish.
8. Jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini Vazirlar Mahkamasining faoliyatini nazorat qilishda faol ishtirok etishga jalb qilish.
9. Qonunchilikni yanada takomillashtirish, masalan, vazirlar mahkamasining reglamentini qayta joriy qilish mumkin. Ijro hokimiyatining asosiy va tashkiliy masalalari uning reglamenti bilan belgilanishi kerak.
10. Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining roli va mas'uliyatini yanada oshirish.

Vazirlar Mahkamasi faoliyati davomida prezident va oliy majlis oldida javobgar bo'lishi mumkin. Lekin hukumatning boshqacha tarzda javobgar bo'lishi masalan, hukumat a'zolarining jinoiy javobgarligi uning samarali faoliyat yuritmayotganligini ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonuni, 25.10.2024-yildagi O'RQ-982-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
3. Konstitutsiyaviy huquq: darslik / mualliflar jamoasi. TDYU nashriyoti, 2024. - 800 b.
4. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonuni, 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son.
5. B. T. Musayev, K. R. Aliyeva, B. A. Narimanov. Konstitutsiyaviy huquq darslik. TDYU, 2021. - 188 b.
6. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. - 400 b.